

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA INTELLEKTUAL MULKNING AHAMIYATI

Nasirillayeva Nadida Otabek qizi

TDIU mustaqil izlanuvchi, PhD

Annotatsiya. Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan davrda davlatlar o'z taraqqiyot yo'lini intellektual mulk sohasini rivojlantirish orqali belgilamoqda. Ilm-fanning cheksiz yutuqlari jamiyatning barcha tarmoqlariga tadbiq etilishi esa mamlakatimizda intellektual mulk sohasini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyotda intellektual mulkning roli va uni rivojlantirishning muhim jihatlari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: intellektual mulk, innovatsiya, inson kapitali, intellektual mulkni tijoratlashtirish.

Innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, uning jadal sur'atlar bilan rivojlanishini va raqobatbardoshligini ta'minlash, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzini yanada oshirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda har bir davlat o'z iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda innovatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanishga katta e'tibor qaratmoqda. Innovatsiyaning negizini esa intellektual mulk tashkil etadi. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda intellektual mulkning ahamiyati beqiyos, o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Agar intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmasak, O'zbekiston 10 yildan keyin ham raqobatdosh bo'lmaydi." [1]

Bugungi tezkor o'zgarish va yangilanishlar davrida mavjud yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, yangidan-yangi, bugungi hayotimiz talabiga asoslangan intellektual mulk mahsuli bo'lgan innovatsiyalarni ishlab chiqish va intellektual mulk obyektlarini takomillashtirish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borish va ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Intellektual mulk va uning ahamiyati, himoyasi masalalarini alohida tadqiqot predmeti sifatida bir qator xorijiy va mahalliy olimlar ishlarida o'rganilib, masalaning xalqaro huquqiy asoslari, intellektual mulk sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Akramxodjaeva Z.S. intellektual mulk huquqini himoya qilish usul va vositalarini tahlil qilib, ular bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqishga e'tibor qaratgan. [2]

Toshev B.N. bozor iqtisodiyotida intellektual mulk va mualliflik huquqini

tartibga soluvchi huquqlarni rivojlantirish, sohaga oid xalqaro aktlarning mazmun-mohiyatini va ularni qo'llash xususiyatlarini ko'rsatib bergan.[3]

Rus tadqiqotchisi N.N.Karpova esa, intellektual mulk tushunchasiga o'z mualliflik ta'rifini keltirib o'tgan. Shu bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar uchun JSTga a'zo bo'lish intellektual mulk huquqini ta'minlashda quyidagi ijobiy va salbiy jihatlarini ajratib ko'rsatgan. Xususan:

1) intellektual mulk huquqini samarali himoya qilish investitsion iqlimni yaxshilashi;

2) intellektual mulk huquqidan foydalanish tushunchasining yagona talqini ishlab chiqilishi (buxgalteriya, soliq va moliya hisobotlarida intellektual mulkdan foydalanish hisobini yuritish bilan bog'liq o'zgartirish kiritilishi);

3) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

4) tashqi savdoda diskriminatsion choralardan himoya qilinishi;

5) milliy intellektual mulk qonunchiligini xalqaro qonunchilik bilan uyg'unlashishi;

6) milliy bozorda umumqabul qilingan tovar belgilarining tan olinishi;

7) kontrafakt va qaroqchilik mahsulotlari miqdori kamayishiga olib kelishi.

Shu bilan bir qatorda, JST doirasida yangi a'zo bo'layotgan rivojlanayotgan davlat uchun intellektual mulk himoyasida quyidagi salbiy jihatlarini keltirib o'tilgan:

1) tashqi bozordagi yuqori raqobatning yuzaga kelishi;

2) sanoat sohasidagi ilmiy-texnikaviy ekspertizaga bo'lgan talablarning kamayishi; 3) mahalliy bozorda tovar belgilari o'rtasidagi yuqori raqobat yuzaga kelishi oqibatida milliy ishlab chiqaruvchilarning bozordagi o'z o'rnini yo'qotishi;

4) chet el arizachilari tomonidan patent olishda to'lanadigan bojlarning davlat budjetiga tushmasligiga olib kelishi.[4]

Ilmiy tadqiqotlarda statistik tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Bugungi kunda inson kapitalidan samarali foydalanish, yaratilgan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashuv jarayoniga keng joriy etish va sohani iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylantirish jahonning iqtisodiyoti rivojlangan davlatlari uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Shunday nomoddiy aktivlar ya'ni tovar belgilari borki ularning qiymati butun bir davlat YaIMni tashkil qilishi mumkin. Misol uchun, AQShning Amazon onlayn-chakana savdo marketi ketma-ket uchinchi yil dunyodagi eng qimmat brendlar ro'yxatida yuqori o'rinlarni egallab, uning qiymati bugungi kunda 254,2 milliard dollarni tashkil qilmoqda. Eng qimmat brendlar ro'yxatidan Apple (263,8 mlrd. dollar), Google (191,2 mlrd. dollar), Microsoft (140,4 mlrd. dollar), Samsung (102,623 mlrd. dollar), Walmart Inc. (93,2 mlrd. dollar), Mercedes-Benz (65,04 mlrd. AQSh dollari) va boshqalar o'rin olgan.[5]




Figure 1. The world's leading brands and their values (The Global Top 10)

Brend taniqliligi marketing strategiyasining muhim elementi hisoblanib, geografik ko'rsatkichlar mahsulotning kelib chiqishi bilan bog'liq xususiyatlari haqida ma'lumotni o'z ichiga oladi. Ular mahsulotni bozorda individuallashtirish vositasi rolini o'ynab, iste'molchilarga geografik kelib chiqishiga asoslangan mahsulotni boshqa mahsulotlardan yaqqol ajratib olish imkoniyatini beradi. Oldimizda turgan muhim vazifalardan biri milliy ishlab chiqaruvchilarning obro'sini oshirish va mahsulotlarning qo'shimcha qiymatini ta'minlashdir.

Intellectual mulk sohasi rivojining ahamiyati shundaki, uning asosiy qismi nomoddiy aktivlardan iborat hamda uning yuqori narxga erishishida intellektga asoslangan texnologiyali mahsulotlar asosiy o'rin egallaydi. Intellectual resurslardan foydalangan holda ishlab chiqarishning o'sishi bilan ularning qiymati eskirmaydi, aksincha, ortadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellectual mulk rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilganligi sababli ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilanib, intellectual mulkning ichki yalpi mahsulotdagi ulushi keskin ortgan. Misol uchun, intellectual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45 foizini, Xitoyda 12, Rossiyada esa 7 foizni tashkil etadi. [6] O'zbekistonda intellectual mulk mamlakat YaIMning ulushida qancha qismini tashkil etishi haqida aniq ma'lumot yo'q, juda kam miqdorni tashkil etadi. Buning asosiy sabablaridan biri bizning mamlakatda intellectual mulk obyektlarini baholash tizimining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidadir. Bu ko'rsatkichlar bizning mamlakatda intellectual mulk tashkilotiga topshirilgan va ro'yxatdan o'tgan sanoat mulki obyektlari miqdoriga qarab belgilanadi.

Global innovatsiya indeksining joriy yilgi reytingida O'zbekiston 133 ta davlat orasida 79-o'rinni egalladi. O'zbekiston innovatsiyalar sohasida milliy iqtisodiy rivojlanish darajasiga solishtirganda baland ko'rsatkichga erishgan mamlakatlar

qatoridan joy oldi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan innovatsiyalarning yuqori samaradorligi qayd etildi. [6]

1-jadval

Year	GII Position	Innovation Inputs	Innovation Outputs
2020	93rd	81st	118th
2021	86th	75th	100th
2022	82nd	68th	91st
2023	82nd	72nd	88th
2024	83rd	71st	91st
2025	79th	69th	92nd

Source: WIPO statistics database; last updated 09/25 [6]

Reytingning 2025-yilgi hisobotida O'zbekiston Innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar (*innovation input*) subindeksida o'tgan yilga nisbatan 2 pog'onaga o'sib 69-o'rinni egalladi va Innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar (*innovation output*) subindeksida 92-o'rinni egalladi.

Global innovatsiya indeksi (GII) reyting Jahon intellektual mulk tashkiloti (Jeneva) tomonidan Portulans instituti (AQSH), turli korporativ va akademik tarmoq hamda GII maslahat kengashi bilan hamkorlikda tayyorlanib, global tadqiqot va innovatsion rivojlanish bo'yicha dunyo mamlakatlari faoliyatini baholaydigan yetakchi tadqiqot hisoblanadi hamda 2 ta subindeks va 7 ta yo'nalish guruhiga birlashtirilgan 78 ta indikatorni o'z ichiga oladi.

Jadvaldan O'zbekiston YaIMning ulushi o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shunga mutanosib ravishda, 2010-2019 yillar davomida davlat ro'yxatidan o'tgan sanoat mulki obyektlari - ixtiro va tovar belgilari miqdori oshgan, xususan, ixtiro 1,2 baravarga, tovar belgisi 2,1 baravarga ko'paygan, sanoat namunasi esa o'zgarishsiz qolgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oldimizda turgan muhim vazifalardan biri Butunjahon intellektual mulk tashkiloti mutaxassisleri bilan baholovchilar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish hisoblanadi. Xalqaro tajribadan ko'rish mumkinki, yirik davlatlarda bu yo'nalishda yirik institutlar tashkil etilib, baholash standartlari yaratilgan. Maxsus mezonlar orqali har qanday tovar va xizmat qiymatini belgilash mumkin.

Bugungi texnologik taraqqiyotda intellektual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda, davlatning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini belgilab bermoqda.

O'zbekistonda intellektual mulkni rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- "Intellektual mulkni rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi" ni ishlab chiqish;

- intellektual mulk himoyasini kuchaytirish yuzasidan har bir idora va tarmoqqa ilmiy yutuqlarni olib kirish;

- ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, mahalliy brendlarni ommalashtirish;

- Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Havolalar:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 12-oktabrdagi "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" yig'ilishidagi ma'ruzasi <https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/12/intellectual-property/>

2. Akramxodjayeva Z.S. Intellektual mulk huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilishni takomillashtirish muammolari: Avtoref. diss. yurid. fan. nomz.-T.:TDYU, 2008.– S. 5.

3. Toshev B.N. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarning huquqiy maqomi: Avtoref. diss. yurid. fan. nomz.-T.:TDYU, 2008.– S. 9.

4. Karpova N.N. Vstuplenie Rossii v VTO i zashita intellektualnoy sobstvennosti – "Rossiyskoe predprinimatelstvo" 2012. – S. 17-25

5. The largest brand value database in the world (e-resource) <https://brandirectory.com>

6. <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan>